

## Ijodkor qizlar davrasi

2020-yil 18-dekabrda 3 talabalar turar joyida tarbiyachi pedagog A.Xayitova tashabbusi bilan "Ijodkor qizlar davrasi" mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda institutimiz "Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi" raisi Z.Ismailova, kengash a'zolari Z.Hafizova, N.Xoliqova, O.Ro'ziqulova, Yer resurslarini boshqarish fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, "Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi" kafedra professor-o'qituvchilaridan: D.Mustafoeva, D.Muqimova, TTJ derektori I.Buxorov va institut psixologi M.Muxamedova va A.Azimovlar hamda talaba-qizlar ishtirok etishdi. Nozik jussalariga yarashgan, chiroyli milliylik ufurib turgan kiyimlarni kiyib olishgan, sochlari o'zlariga yarashig'lik turmaklangan qizlar 5 ta muhim tashabbus doirasida eng faollari - epchillig u chaqqonlikda, pazandalikda, zukkolik va bilimda o'zlarining boshqalardan ustun ekanliklarini bildirish maqsadida o'z iqtidorlarini barcha yig'ilganlarga namoyish etishdi. Mazkur tadbirda 5ta muhim tashabbus doirasida ko'rgazmali liboslar, mazzali salatlar, musiqiy chiqishlar, hamda milliy kurash va sahnaviy chiqishlari bilan yig'ilganlarni xushnut etilar.



Tadbir so'ngida "Yurtboshimiz ilgari surgan besh tashabbusni to'la amalga oshirishni biz ziyolilar o'z zimmamizga olishimiz zarur," - dedi institutimiz "Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi" raisi professor Z.Ismailova - Bugun o'zini jamiyat taraqqiyoti uchun burchliman, degan inson uyg'onmasa bo'lmaydi! Uyg'oqlik - jamiyat hayotiga befarq bo'lmaslik, loqayd yashamaslik demakdir! Bu borada qilishimiz zarur bo'lgan ishlarimiz juda ko'p. Bugun kimdandir ko'rsatma kutib o'tiradigan davr o'tdi. Har bir ongli inson qalb amri ila o'zi harakat qilmog'i zarur. Davlatimiz rahbarining "Ziyo nuri - oliygohdan boshlanadi" degan so'zlarini o'zimizga shior qilib olishimiz darkor. Ertaga bu qizlarimiz nafaqat oilada yaxshi beka, farzanlariga yaxshi ona qolaversa jamiyatimizda munosib ish o'rinlarini egallashlariga biz ishonamiz deb o'z fikrlarini bildirib o'tdilar. Tadbir so'ngida barcha talaba- qizlarimizni kirib kelayotgan yangi 2021 yil bayrami bilan tabriklab, ota-onalarini ham institut rahbariyati nomidan tabriklab qo'yish kerakligi aytib o'tildi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**